

ONA TILI- MILLATNING RUHI

Axano‘va Nazokat Axmedovna

*Qoraqalpog‘iston respublikasi Beruniy tumanidagi
55 maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining rivojlanish tarixi, uning rasmiy tilga aylanishi va dunyoga yuz tutishi, o‘zbek tiliga berilayotgan e‘tibor va bu rivoji yo‘lida qilinadigan ishlar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, nutq, qonun, bayram, tadqiqot, lotin yozuvi, tarix.

Abstract: This article talks about the history of the development of the Uzbek language, its transformation into an official language and its appearance in the world, the attention paid to the Uzbek language and the work to be done in the way of its development.

Key words: Uzbek language, speech, law, holiday, research, Latin script, history.

Аннотация: В данной статье рассказывается об истории развития узбекского языка, его превращении в государственный язык и появлении в мире, внимании, уделяемом узбекскому языку и предстоящей работе на пути его развития.

Ключевые слова: Узбекский язык, речь, право, праздник, исследования, латиница, история.

Ona tilimizga bo‘lgan e‘tibor nafaqat mamlakatimizda, balki uni xorijiy mamlakatlarning adabiyotshunos olimlari tomonidan o‘rganilib, o‘zbek tilining jahon tillari orasida eng go‘zal va nafis til ekanligi, boy tarixga egaligi e‘tirof etiladi. Turli anjumanlarda ona tilimizning boy til ekanligi haqida bildirilgan odilona-xolisona fikrlar buni isbotidir.

Bugungi kunda jahondagi ko‘plab mamlakatlar xalqlari davlatimiz ramzlari — O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i, gerbi, davlat madhiyasi qatorida o‘zbek tiliga ham hurmat bilan qarab, unga nafis va boy til sifatida yuksak baho berib kelmoqdalar. Har yili 21-oktabr kunini yurtimizda "O‘zbek tili" bayrami sifatida keng nishonlanishi an‘anaga aylanib qolgan. Chunki, mamlakatimizda ona tilimizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, uning milliy ruhini oshirish, madaniyat va san‘atni yuksak pog‘onalarga ko‘tarish, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish sohasida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta‘minlashdek ustuvor yo‘nalishdagi vazifalarni bajarish tom ma‘noda kundalik hayotimizga tobora singib bormoqda.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning: «...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma‘naviy bog‘liqlik til orqali namoyon

bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga til orqali, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir» — degan purma'no so'zlari ona tilimizning naqadar yuksakligi, ahamiyatligini anglatadi. Aniqlovchilar mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bilan boshlab berdi, - degan fikri ayni haqiqatdir]. Olimning A.G'ulomov haqida aytgan bu fikrlari ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan. XX asrning 40-80-yillari o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti haqidagi ishlarda, aynan shu fikrlarning qanchalik to'g'ri ekanligini ta'kidlovchi dalillar bilan to'qnashganmiz, haqiqatan ham, A.G'ulomov o'zbek nazariy tilshunosligining poydevorini qo'ygan, favqulodda iste'dodga ega bo'lgan betakror tilshunos edi. O'zbek nazariy tilshunosligining shakllanish davri haqida gap borar ekan, A.G'ulomovdan bir yil keyin nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan prof.U.Tursunov ilmiy foaliyati haqida to'xtalmaslik mumkin emas. A.G'ulomov 1940-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan bo'lsa, U.Tursunov, bir yildan keyin o'z ilmiy ishini yakunlash bilan, o'zbek nazariy tilshunosligining shakllana boshlanganligini to'la namoyon etdi. Qizig'i shundaki, A.G'ulomov «O'zbek tilida aniqlovchilar» monografiyasi bilan o'zbek nazariy grammatikasining poydevorini qo'ygan, oxir-oqibat yirik tilshunoslik ilmiy maktabini asoschisiga aylangan bo'lsa, U.Tursunov yuqorida qayd etilgan tadqiqoti bilan o'zbek nazariy tilshunosligi poydevorini mustahkamladi va Samarqand tilshunoslik ilmiy maktabining asoschisiga aylandi.

O'zbek nazariy tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyotiga, katta hissa qo'shgan boshqa olimlar faoliyatiga to'xtalishdan avval shuni alohida ta'kidlamochimizki, arab tilshunosligi rivojiga hissa qo'shgan, shu bilan birga umuman, jahon tilshunosligi taraqqiyotini ta'minlagan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Navoiy, Bobur, Abubakr Sakkokiy, Yoqut Hamaviy, Abu Hayyon, Jaloliddin Abu Muhammad Abdulloh turkiy, Abu Mansur as-Saolibiy kabi ko'pgina sharq olimlarining, shuningdek, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus turkologlari: F.E.Korsh, A.E.Krimskiy, M.A.Kazembek, N.I.Ilminskiy, V.A.Bogoroditskiy, N.I.Ashmarin, L.Z.Budagov, P.M.Melioranskiy, V.V.Radlov, S.E.Malov, E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, A.N.Samoylovich kabi yirik olimlar va XX asrning 20-30-yillarida tilshunoslik sohasida tadqiqotlar olib borgan va yuqorida tilga olingan o'zbek olimlari, keyingi davr o'zbek tilshunosligi taraqqiyotini belgilashda muhim o'rinni egallaydilar. O'zbek nazariy tilshunosligining shakllanishida ularning ilmiy izlanishlari asosiy manba hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarsiz o'zbek tilshunosligining keyingi ilmiy bosqichini belgilash qiyin. Ma'lumki, o'zbek milliy, ilmiy tilshunosligining shakllanishini ana shu olimlarning izlanishlari, qarashlari ta'minladi. Bu tadqiqotlar: a) turkiy tilshunoslikning shakllanishi uchun bosh manba bo'lgan; b) o'zbek tilshunosligining alohida ajralib chiqishini ta'minlagan; v) o'zbek adabiy tili mavqeini belgilash uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan amaliy masalalarni hal

etishga qaratilgan; g) milliy ilmiy tilshunoslikning shakllanishiga shart-sharoit yaratgan bo'lib, mazkur jarayonda bu olimlar hissasi juda katta bo'lgan.

Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» (To'rt ulus tarixi) kitobida quyidagilar bayon etiladi, ya'ni: Sulton Muhammad O'zbekxon o'zining el ulusi bilan ilohiy saodat va fazilatga yetishgach, hazrati Sayid Otaning g'ayb ishorati va Ollohning inoyati bilan ularning barchasini Movarounnahr diyori sari olib keldi. Hazrati Sayd Otaga quloq solishdan bo'yin tovlaganlar bu saodatdan bebahra holda u yerda (Dashti Qipchoqda) qoldilar va «qalmoq» degan nomga mansub bo'ldilarki, buning ma'nosi «qolgan» demakdir. Hazrati Sayd hamda Sulton Muhammad O'zbekxon bilan hamrohlikda Movarounnahrda kelgan kishilardan: «Bu kelgan kishilar kim?» deb so'rardilar. Ularning sardori va podshohi O'zbekxon bo'lgani uchun ularni «o'zbek» deb atadilar. Shu sababli o'sha zamondan boshlab Movarounnahrda kelgan kishilar «o'zbek» deb atala boshlandi.

XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi qavmlarning Movarounnahrda kirib kelishi bilan mahalliy aholi tarkibida «o'zbek»larning nufuzi yanada ortgan va asta-sekin bu nom turkiy aholining umumiy nomiga aylangan. Bu esa turkiy tilning tobora kengayishi va nufuzi oshib borishiga keng imkoniyat yaratib bergan. Tilshunos olimlarning fikriga ko'ra, turkiy tillar eramizning IV asrida uch guruhga bo'lingan hamda qarluq, qipchoq, o'g'uz guruhlari vujudga kelgan. Bular orasida eng qadimgi yozuv tili qarluq guruhi zaminida shakllangan azaliy o'zbek tilidir. Tarixda eng ko'p adabiy va ilmiy asarlar ham shu tilda ijod qilingan. Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur singari so'z ustalari ijodi bilan bu til yanada sayqallangan va rivojlangan.

Taniqli rus tarixchisi A.P.Grigoryev shunday deb yozgan: «O'sha paytda (XIII-XIV asrlar) Oltin O'rdada so'zlashuv va yozuv tili sifatida qipchoq lahjasi qo'llanilgan bo'lsada, rasmiy yozishmalar va adabiy matnlarda Chig'atoy lahjasi, ya'ni eski o'zbek tili qo'llanilgan».

Xulosa qilib aytganda, Oltin O'rdaning rasmiy va adabiy tili turk tilining Chig'atoy lahjasi o'zbek mumtoz adabiy tili bo'lgan. Ajdod va avlodlarimizning asrlar osha say'-harakati bilan ona tili — o'zbek tilida samarali ijod qilingan, til qadrlanib rivojlantirilgan, boshqa el-ulus, millat va elatlar o'rtasida keng mushohada qilish hamda o'zaro muloqot o'rnatilib, til madaniyatining ta'sirchanligi va nufuzi oshirib kelingan.

Ma'rifatparvar va zabardast adibimiz Abdulla Avloniy: «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur», - degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi. Uning ona tili va adabiyotni buzish, boshqa tillar bilan aralashtirib, mazmun-mohiyatini o'zgartirish, natijada bir tilning boshqa tildan ustun turishiga, tilning ruhiyatini buzishga qaratilgan har qanday urinish va zid harakatlarga qarshi chiqqanligi quyidagi purma'no so'zlarida yaqqol isbotlanadi. «Zig'ir yog'i solub,

moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadir. Bobolarimizga etishg'on va yaragan muqaddas til, adabiyot bizga hech kamlik qilmas. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar ila suhbat qilmoqdan iborat».

Ushbu dalillar shundan dalolat beradiki, ajdod va avlodlarimiz tomonidan yaratilgan o'zbek tili asrlar osha rivojlanib, turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, taraqqiy qilib, yuksak madaniy tilga aylanganligi va o'zining tarixiyligi bilan ham ahamiyatlidir. Dunyo hamjamiyatida BMT tashkilotining 75-sessiyasida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tarixda birinchi marotaba o'zbek tilida ma'ruza qilishi o'zbek tilini rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi. 2020-yil 1-oktabr prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'tkazilgan bayram dasturi davomida til madaniyati, adabiy til va shevalar munosabati, adabiy talaffuz va stilistik mezonlar haqida nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borish, o'zbek adabiy talaffuzi lug'atini tuzish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek o'zbek tilida har xil matnlar tuzish tartib-qoidalari chuqur izohlangan ilmiy asarlar, nasr va nazm tiliga doir tadqiqotlar olib borish, turli hajmdagi izohli, sinonim, antonim, paronim, omonimlar va imlo lug'atlari hamda qo'llanmalar tuzish til madaniyatini yuksaltirishda o'zining munosib natijasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" Toshkent 2008-yil
2. Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabrdagi ma'ruza
3. Lex.uz
4. Uz.onfomcom.uz
5. Ziyonet.uz